



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSTAQIL VA
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
SHART-SHAROITLARI**

Pardayeva Gulzoda Elhom qizi

Osiyo texnologiyalari universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlash bolalarning kognitiv rivojlanishining muhim komponenti bo'lib, muammolarni hal qilish, axborotni tahlil qilish va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantiradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash, rivojlantiruvchi muhit, muammoli ta'lim.

Zamonaviy ta'lim tizimida mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish shaxs rivojlanishining muhim sharti sifatida qaralmoqda. Maktabgacha yosh davri bolalarning bilish faoliyati jadal rivojlanadigan davr bo'lib, aynan shu bosqichda tafakkurning asosiy shakllari shakllanadi. Shu sababli ushbu davrda bolalarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biridir.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, maktabgacha yosh davri (0–8 yosh) bolalarda intellektual, ijtimoiy va ijro funksiyalarining rivojlanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu davrda ta'lim muhiti bolalarning nafaqat bilim olishiga, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyatining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlash bu shaxsning axborotni tahlil qilish, baholash va asoslangan xulosa chiqarish jarayoni bo'lib, bu qobiliyat bolalarga muammolarni mantiqiy va asoslangan holda hal qilish imkonini beradi. Tanqidiy fikrlash rivojlangan bolalar vaziyatni tahlil qiladi, dalillarga asoslanadi va mustaqil qaror qabul qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashi bugungi kundagi eng muhim talablardan biridir. Bola o'zi mustaqil fikrlay olsagina u kelajakda o'z o'rnini hech qiynalmasdan topa oladi. Shubhasiz, yosh avlodning zamon talablariga munosib, mustaqil fikr-qarashiga ega, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyat sohibi va dunyoning har bir burchagidagi tengdoshi bilan erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs bo'lib kamol topishida adabiyot va san'atning roli beqiyosdir. Shu sababdan ham maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, kelajakda ularni yetuk, barkamol shaxs bo'lib yetishishiga, yurtimizni yanada ravnaq toptirishiga zamin yaratadi. Farzandning to'g'ri fikrlash va harakat qilish qobiliyatini rivojlantirib,



takomillashtirish orqali mufavvaqiyatga erishish mumkin. To'g'ri fikrlashning asosiy usullari mavjud - taqqoslash, tahlil va sintez, mavhumlashtirish va umumlashtirish, konkretlashtirish. Bu usullarning barchasi maktabgacha yoshdagi bolaning tarbiyasiga ta'sir qiladi, ijobiy xarakter xususiyatlari rivojlanadi, o'zining yaxshi fazilatlarini, mehnat qobiliyatini, faoliyatini rejalashtirish, o'zini o'zi boshqarish va ishonchni, qiziqishni rivojlantirish zarurati ko'p narsani o'rganish va bilish istagini rag'batlantiradi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar bugungi kunda juda dolzarbdir, chunki ular kelajak uchun muhimdir. Bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy mezonlari quyidagilardir: muhim xususiyatlarni kichiklardan ajrata olish, fikr yuritish, taqqoslash, tahlil qilish, obyektlarni tasniflash, o'z nuqtai nazarini muhokama qilish, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, nostandart fikrlashni rivojlantirish. Bolaning rivojlanishi va o'rganishi yoshiga mos keladigan faoliyat va pedagogik vositalar orqali amalga oshirilishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun shunday ta'lim vositalaridan biri o'yindir. Bolalar o'ynashni yaxshi ko'rishlarini hamma biladi va bu o'yinlar qanchalik foydali va mazmunli bo'lishi faqat pedagoglarga bog'liq. O'yin davomida bola nafaqat ilgari olingan bilimlarni mustahkamlaydi, balki yangisini ham oladi. Bolalarda ketma-ket harakatlarni bajarish qobiliyatini rivojlantirish uchun: tahlil qilish, asosda umumlashtirish, maqsadli fikrlash, taqqoslash, o'z ishimda oddiy mantiqiy topshiriq va mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mustaqil va tanqidiy fikrlash bolalarning kognitiv rivojlanishining muhim komponenti hisoblanadi. Bu fikrlash turi quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- tahlil qilish;
- solishtirish;
- sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash;
- xulosa chiqarish;
- muammoga mustaqil yechim topish.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlash bolalarning muammolarni tushunish, axborotni baholash va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash bolalarda mustaqillik, refleksiya va analitik tafakkurning shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning



pedagogik shart-sharoitlari

1. Rivojlantiruvchi pedagogik muhitni yaratish

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, rivojlantiruvchi muhit bolalarda mustaqil fikrlash, kreativlik va tanqidiy tafakkurni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

2. Muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish

Muammoli ta'lim bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu metod orqali bolalar: muammoni aniqlaydi, taxmin qiladi, yechim topadi, xulosa chiqaradi. Muammoli vaziyatlar bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi va ularning bilish faolligini oshiradi.

3. Savol-javob va dialog metodidan foydalanish

Savol-javob metodlari bolalarda refleksiv fikrlashni rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sokratik savol berish metodidan foydalanish 5–6 yoshli bolalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini samarali rivojlantiradi. Savollar quyidagi turda bo'lishi mumkin:

Nima uchun?

Qanday qilib?

Agar shunday bo'lsa, nima bo'ladi?

Bu savollar bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantiradi.

4. O'yin faoliyatini tashkil etish

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy turi hisoblanadi. O'yin orqali bolalar: vaziyatni tahlil qiladi, qaror qabul qiladi hamda muammolarni hal qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, o'yin texnologiyalari bolalarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

5. Pedagog shaxsining roli

Pedagog bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Pedagog yo'naltiruvchi, motivator, rivojlantiruvchi muhit yaratuvchi shaxs hisoblanadi. Montessori metodikasiga ko'ra, pedagog bolaga tayyor bilim bermaydi, balki mustaqil o'rganish uchun sharoit yaratadi. Bu bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Konseptual va tajribaviy o'rganish metodlari bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, quyidagi pedagogik shart-sharoitlar mavjud bo'lganda bolalarda mustaqil va tanqidiy fikrlash samarali rivojlanadi: rivojlantiruvchi ta'lim muhiti, muammoli vaziyatlar, interaktiv metodlar, pedagogik qo'llab-quvvatlash hamda mustaqil faoliyatni rag'batlantirishdir. Shuningdek, dialog va muhokama metodlari bolalarning fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish shaxsning intellektual rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun rivojlantiruvchi



pedagogik muhit yaratish, muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish, o'yin faoliyatini tashkil etish va interaktiv metodlarni qo'llash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova B.M., Sunnatova R.I. Mustaqil fikrlash o'quv qo'llanmasi bo'yicha
2. mashg'ulotlar tashkil etish uslubiyoti. -T; —Sharq, 2000, 6-bet.
3. 2.Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi (o'quv-metodik qo'llanma). T.: "Fan va texnologiya", 2008, 160 bet.
4. Berdaliyeva G.A. Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish // p.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss.avtoreferati. –Toshkent: MTTRMQTMOI, 2019. – 48 b.